



KIMYO INTERNATIONAL UNIVERSITY
IN TASHKENT BRANCH SAMARKAND

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISHDA SHADOWING TA'LIM TEKNOLOGIYASINING
AHAMIYATI.**

Yokubova Maftuna Ne'mat qizi

maftunayoqubov@gmail.com

*Master of Kimyo International University In Tashkent
Branch Samarkand*

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tillarning zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni hamda ingliz tilini o'qitishda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, tilshunos olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Xorijiy tilni o'rganishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining ahamiyati ta'kidlanib, ularni rivojlantirish uchun innovatsion ta'limgan texnologiyalaridan foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, **shadowing** texnologiyasi ingliz tilida so'zlash va tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda samarali usul sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, og'zaki nutq, shadowing texnologiyasi, taqlid qilish, innovatsion ta'limgan metodlari, pedagogik ko'nikmalar, aksent, gapirish, tinglash, talaffuz.

Kirish Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'limgan tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish, tahlil qilish va milliy ta'limgan tizimimizga mos jihatlarini tatbiq etish muhim ahmiyat kasb etadi. Bu esa bizning ta'limgan tizimimizni jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun zarur shartlardan biridir. Ta'limgan sohasida islohotlarni amalga oshirishda dunyo va jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni inobatga olish, shu asosda ta'limgan jarayonining mazmunini shakllantirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan xorijiy tillarni o'rganish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2022-yil 28-yanvarda tasdiqlangan PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaror xorijiy tillarni o'rganish va o'qitish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu hujjatlar doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola ham muayyan darajada hissa qo'shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev chet tillarini o‘rganishni keng targ‘ib qilish, aholiga bu borada qulay sharoitlar yaratish hamda ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro tan olingan dasturlar va darsliklardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, o‘qituvchilarining zamonaviy pedagogik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha mamlakatimizda bir qator olimlar, jumladan, J.J. Jalolov, V.I. Andriyanova, T.K. Sattarov, L.T. Axmedova, O‘.H. Xoshimov, F.M. Rashidova va I.M. To‘xtasinov ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jahon tilshunosligida esa Uillis, K. Bailey, S. Goh, S. Richard, S. Kadota va K. Kurata tomonidan og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha nazariy ma’lumotlar ishlab chiqilgan. O‘zbek uslubshunoslik maktabida oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, filologik va nofilologik yo‘nalishdagi talabalar uchun ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. N.N. Normatova ta’kidlaganidek, lingvistik kafedralarda chet tilining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni nofilologik yo‘nalishdagi kafedralardan farqlanadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro muloqot sifatining didaktik mukammallik hamda talabaning motivatsiyasiga bog‘liqligi muhim omil hisoblanadi.

Uillis (1996) esa chet tilini o‘rganishda stress darajasini pasaytirish va tildan amaliy maqsadlarda foydalanish mazmunli muloqotga olib kelishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, til o‘rganish jarayonida ta’sir qilish, foydalanish va motivatsiya muhim omillar hisoblanadi. Vazifaga asoslangan ta’lim esa kommunikativ faoliyatni rivojlantirishda va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali yondashuvlardan biri sifatida qayd etiladi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar. Bugungi kunda og‘zaki nutqni rivojlantirishda turli innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Ulardan biri **shadowing** texnologiyasi bo‘lib, bu usul og‘zaki nutqni rivojlantirishning samarali usullaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, og‘zaki nutqni rivojlantirish bo‘yicha turli ilmiy izlanishlar amalgalashirilgan. Ushbu maqola doirasida tegishli adabiyotlarni tahlil qilish asosida izlanishlar olib borildi. Bugungi kunda ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda. **Shadowing** texnologiyasi ushbu jarayonda eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Shadowing usuli tinglash va gapirish ko‘nikmalarini bir vaqtida rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Ko‘rmasdan taqlid qilish** – transkriptsiyasiz matnni tinglab, mazmunni tushunishga harakat qilish va uni bir necha bor takrorlash.
2. **Matn bilan taqlid qilish** – matnning tarjimasiga qarab, nutqning talaffuzini takrorlash.

3. Soyadek takrorlash – media materiallarga taqlid qilish, matn esa ko‘z oldida bo‘ladi.

4. Ishlab chiqish – matnni ovoz chiqarib qayta o‘qish va talaffuz xususiyatlarini tahlil qilish.

5. Xat – media materiallardan olingan nutqni yozma shaklda qayd etish va ovoz chiqarib o‘qish.

Ushbu bosqichlar orqali shadowing texnikasi chet tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish va talaffuzni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashiga asos bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish til o‘rganish samaradorligini oshiradi. Shu jihatdan, shadowing ta’lim texnologiyasi nafaqat gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishda, balki tinglab tushunish mahoratini rivojlantirishda ham samarali usul hisoblanadi.

Shadowing texnikasi orqali til o‘rganayotganlar tabiiy talaffuzni shakllantirish, aksentni to‘g‘rilash, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va nutq ravonligini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni real hayotdagi muloqot sharoitlariga tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu usul orqali til o‘rganuvchilar so‘z birikmalarining intonatsiyasi va ritmini yaxshiroq o‘zlashtirishlari mumkin.

Maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, **shadowing** texnologiyasidan foydalanish nafaqat filologik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarga, balki nofilologik soha vakillariga ham katta foya keltirishi mumkin. Ushbu texnikani muntazam va tizimli ravishda qo‘llash ingliz tilini amaliy o‘rganishda samaradorlikni oshirib, ta’lim jarayonini ancha qulay va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli, ingliz tilini o‘qitish jarayonida **shadowing** texnologiyasini yanada kengroq tatbiq etish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu usuldan ta’limning barcha bosqichlarida foydalanish til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu metodikaning ta’lim tizimida keng joriy etilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, uni innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va zamonaviy o‘qitish uslublari bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- Mirziyoyev Sh.M. “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi 312-son qarori.
- Normatovna, N. N. Chet tili sifatida ingliz tilining og‘zaki nutq malakalarini oshirish muammolari va ularni yo‘q qilish imkoniyatlari. Integratsiyalashgan ta’lim bo‘yicha xalqaro jurnal, 5(12), 96-99.

3. Yuldasheva O.O. O'quvchilarning diskurs og'zaki nutq ko'nikmasini-rivojlantirishga oid metod va texnologiyalar. Academic Research in Educational Sciences, 2022 270-271.
4. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2012.
5. Brown, D. (1994). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. New Jersey: Prentice Hall Regents.
6. Bygate, M. (1987). Speaking. New York: Oxford University Press.
7. Kadota, S. (2007). Shadowing to Ondoku no kagaku [Science of shadowing and oral reading]. Tokyo: Cosmopier.
8. Kurata, K. (2007). Nihogo shadowing no Ninchi mechanism ni kansuru kisokenkyu [a basic research on cognitive mechanism of shadowing]. Bulletin of the Graduate School of Education of Hiroshima University, 56(2), 259-265.